



2018 yil yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi




RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **630,9 mlrd.so'mni**, o'sish **11,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **108,5 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **25,7 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **30,3 %**

2018 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 630,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoati korxonalarining ulushiga to'g'ri keladi (57,2 foiz). Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash sanoati xam munosib xissa qo'shdi (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 46,3 foiz).

2018 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Qayta ishlash sanoat

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 332,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 52,7 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr,
va**

Elektr,
havoni

292,0

hajmining



**gaz, bug' bilan ta'minlash
havoni kondititsiyalash.**

gaz, bug' bilan ta'minlash va kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 46,3 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 24,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmokda: mebel mahsulotlari ishlab chiqarish 6,0 % ga va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 5,2 % ga oshganligi kuzatildi.


***Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| | 2017 yil | 2018 yil | 2017 yil fevralga nisbatan, % |
|---|----------|----------|-------------------------------------|
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna | 2,9 | 3,0 | 101,3 |
| Paxta tolasi, ming tonna | 15,1 | 14,1 | 93,2 |
| Aroq – mig litr 100 % spirt | 170,2 | 187,6 | 110,2 |
| Elektr energiyasi, mlrd kvts | 3,4 | 3,1 | 92,7 |
| Paxta urug'i, ming tonna | 22,6 | 22,4 | 99,1 |
| Kalava ip, tonna | 867 | 751,1 | 86,6 |
| Sellyuloza, ming kg 90% | 227,5 | 71,3 | 31,3 |
| Un, ming tonna | 5,1 | 5,8 | 114,5 |
| Kunjara, ming tonna | 13,5 | 13,4 | 99,3 |

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 162,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 8,5 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 25,6 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-fevral oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 57,5 % dan 2018 yilning fevral oyida 59,6 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




- Nooziq-ovqat tovarlari
- Oziq-ovqat tovarlari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 43,7 % ulushini), Sirdaryo tumani (15,9 %), Guliston shahri (10,2 %), Boyovut (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-fevral oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Xovos tumani (2,2 %), Mirzaobod tumani (2,6 %) va Guliston tumani (3,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)




da)

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 779,4 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 14998,6 ming so'm, Sirdaryo tumanida 81,1 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 191,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 30,3 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil qilgan.

Tuman va shaxarlar kesimida tahlil qilinganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi 2018 yil, 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbati Mirzaobod tumanida 8,3 foiz birlikka o'sgan bo'lsa qolgan tuman va

shaharlarda kamayish kuzatilgan.

